

**JADIDLAR JASORATI – MILLATIMIZ FAXRI**  
**THE JADIDS' COURAGE IS THE PRIDE OF OUR NATION**

**Chinmirzayeva Mohinur<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> SamDTU pediatriya fakulteti

1-kurs talabasi

**Dilnoza Mamanova<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Ilmiy rahbar: SamDTU “O’zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan” kafedrasi assistenti

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 26.03.2025      Ushbu maqolada Turkiston xalqi uchun

jonkuydirgan, ozodlik, dinda erkinlikni targ’ib

Revised: 27.03.2025      qilgan, yangi usul maktablariga asos solgan,

Accepted: 28.03.2025      ma’rifatparvarlik, milliy o’zlikni anglash,

jamiyatdagi tengsizlikni bartaraf etish,

ma’rifatlizlikka qarshi kurashish va mustaqillikka

erishish kabi g’oyalarini ilgari surgan jadidlarning

Vatanimiz taraqqiyoti uchun ko’rsatgan jasorati

haqida ma’lumot berilgan.

**KALIT SO’ZLAR:**

Jadid,  
ma’rifatparvar,  
jamiyat, “xalq  
dushmani”, sho’ro  
davri, ilm-fan,  
taraqqiyot, Turkiston,  
yangi usul maktabi

**KIRISH.** XIX asr oxiri va XX asrning boshlari Turkistonda millatning dardini tushungan, uning kelajagi uchun kurashgan, ma’rifat va taraqqiyotga chaqirgan bir guruh ziyyolilar maydonga chiqdi. Ular jadidlar edi. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi mahalliy odamlar ongiga ta’sir qildi. Jadidlar o’z madaniyati, tili va an’analalarini himoya qilish zaruriyatini his qildilar. Ular ilm-fan va ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o’rnini muhimligini tushundilar. Zamonaviy maktablar ochib bolalarni o’qitish, ilm-fanni targ’ib qilishga intildilar. Jadidchilik harakatini kelib chiqish sabablari, jamiyatdagi tengsizlik, ma’rifatsizlik, eskirgan urf-odatlar, milliy madaniyat va an’analarga e’tiborsizlik, dinning ma’rifat jihatlarini chetda qoldirish va tashqi ta’sir natijasida kelib chiqdi.

Jadidlar o’z faoliyati bilan millatning ongini uyg’otishga, uni taraqqiyot sari yetaklashga va milliy mustaqillik g’oyalarini shakllantirishga muhim hissa qo’shdilar. Ularning dasturi Turkiston iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo’jaligini rivojlantirish va, albatta, Turkistonda mustaqil davlat tuzishga qaratilgan edi. Shuningdek, 20-yillari Qodiriyning hajviy asarlarida sovet voqealigining ichki ziddiyatlarini mahorat bilan ko’rsatgan. Hamza birinchi bo’lib sho’ro idoralaridagi ma’sul xodimlarning munofiqona yuzlarini ochib tashladi. Cho’lpon

“Kecha va kunduz” romanida eng qaltis ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan imperiya siyosati, uning xalq ichiga kirib borayotganini tasvirlab berdi.

Bundan 86 yil oldin, ya’ni 1938-yil 4-oktyabr O’zbekiston tarixidagi eng qayg’uli va qonli kurnlardan biri bo’ldi. Sababi o’sha kuni SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining yig’iliishlarida o’zbek xalqining ziyolilari, olimlari va davlat arboblariga hukm o’qildi va ularning aksariyati otib tashlandi. Jumladan, 4-oktyabr kuni Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon, Abdurauf Fitrat kabi el ardog’idagi shoir va yozuvchilar, bиринчи o’zbek kinorejissiyori va fotografi Xudoybergan Devonov otuvga hukm qilindi. 1934-1938-yillar davomida 730 nafar ma’rifatparvarlar “xalq dushmani” sifatida qatl etildi. Bu yerda faqat odam o’limgandi, u bilan birga milliylik, o’zlik va erkinlik ham o’lgandi.

Qariyb bir asr oldin davlat arboblarimiz bizga xalq uchun, uning ertangi kunini oydinlashtirish uchun qanday kurashish kerakligini ko’rsatib ketdilar. Endi navbat bizga. Hozir vaziyat, sharoit umuman boshqacha. Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda har qanday sohada o’zimizni sinab ko’rishimiz, balki ushbu soha orqali yurtimiz bayrog’ini baland shohsupalarga olib chiqishimiz mumkin. Jadidlarimizdan boshlangan yo’l hali tugamagan. Agar mendan, - “Sizda nima bor,” deb so’rashsa, hech ikkilanmay Usmon Nosirdan qolgan dostonlar, Mahmudxo’ja Behbudiy asos solgan maktablar, xalqni oyoqqa turg’izgan Abdulla Qodiriy asarlari va dono so’zlari ila xalq qalbiga kirib borgan Cho’lponlarimiz bor deya baralla ayta olaman.

Jadidlar jasorati va fidoyiligi millat uchun bebahoh meros bo’lib qoldi. Ularning ma’rifatparvarlik g’oyalari, milliy o’zlikni anglashga chaqiriqlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo’qotmagan. Jadidlarning buyuk ishlari millatimizning madaniy merosini boyitdi, milliy o’zlikni anglashga xizmat qildi. Biz bugungi kunda jadidlarimiz merosini o’rganib, ularning jasoratidan iborat olishimiz lozim. Chunki, jadidlarimizning asosiy g’oyasi, Turkiston deya atalmish yurtda ozod va farovon jamiyat qurish edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbek sovet ensiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.
2. Ahmedov S. O’limdan qo‘rqmagan mutafakkir. “Sovet O’zbekistoni san’ati” 1989-yil, 2-son.
3. Rizaev Sh. Samarqand tarixidan lavhalar”. „Vatan“ gazetasi, 1994-yil, 39-son.